



Linguistic features of English hydronyms

Mokhira KHOLMATOVA¹

Jizzakh State Pedagogical University

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2025

Received in revised form

10 April 2025

Accepted 2 April 2025

Available online

25 May 2025

Keywords:

English hydronyms,
morphological classification,
etymological classification,
semantic classification,
lexical layers,
metaphorical meaning,
historical-linguistic factors.

ABSTRACT

This article analyzes the linguistic features of hydronyms in English (river, lake, sea, ocean, stream, reservoir, canal, etc.). Hydronyms are names given to natural water bodies, the formation and development of which is associated with various historical, cultural and linguistic factors. The article extensively covers the morphological, etymological and semantic classifications of hydronyms, and examines their structural structure, origin and semantic development. English hydronyms were formed under the influence of ancient Celtic, Anglo-Saxon, Roman and Scandinavian languages, and they semantically express meanings related to the natural properties of water, geographical location and the fauna and flora. The article also analyzes the metaphorical use of hydronyms and their role in the formation of new lexical units in the development of modern language.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss5/S-pp412-417>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ingliz tili gidronimlarining lingvistik xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ingliz gidronimlari,
morfologik tasnif,
etimologik tasnif,
semantik tasnif,
leksik qatlamlar,
metaforik ma'no,
tarixiy-lingvistik omillar.

Ushbu maqolada ingliz tilidagi gidronimlar (daryo, ko'l, dengiz, okean, soy, suv ombori, kanal va h.k) ning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Gidronimlar tabiiy suv havzalariga berilgan nomlar bo'lib, ularning shakllanishi va rivojlanishi turli tarixiy, madaniy va lingvistik omillar bilan bog'liq. Maqolada gidronimlarning morfologik, etimologik va semantik tasniflari keng yoritilib, ularning tarkibiy tuzilishi, kelib chiqishi hamda ma'no jihatdan rivojlanishi ko'rib chiqiladi. Ingliz gidronimlari qadimgi kelt, anglo-sakson, rim va skandinav tillarining ta'sirida shakllangan bo'lib, ular semantik jihatdan suvning tabiiy xususiyatlari, geografik joylashuvi va hayvonot hamda o'simlik

¹ Independent Researcher, Jizzakh State Pedagogical University. E-mail: mohira2292974@gmail.com

dunyosi bilan bog'liq ma'nolarni ifodalaydi. Shuningdek, maqolada gidronimlarning metaforik ma'noda ishlatilishi va zamonaviy til taraqqiyotida yangi leksik birliklar hosil qilishdagi roli ham tahlil qilinadi.

Лингвистические особенности английских гидронимов

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

английские гидронимы, морфологическая классификация, этимологическая классификация, семантическая классификация, лексические слои, метафорическое значение, историко-лингвистические факторы.

В статье анализируются лингвистические особенности гидронимов (река, озеро, море, океан, ручей, водохранилище, канал и т. д.) в английском языке. Гидронимы – это названия природных водоемов, формирование и развитие которых связано с различными историческими, культурными и языковыми факторами. В статье подробно рассматриваются морфологическая, этимологическая и семантическая классификации гидронимов, рассматривается их структурная структура, происхождение и семантическое развитие. Английские гидронимы сформировались под влиянием древних кельтских, англосаксонских, романских и скандинавских языков и семантически выражают значения, связанные с природными свойствами воды, ее географическим положением, фауной и флорой. В статье также анализируется метафорическое использование гидронимов и их роль в образовании новых лексических единиц в развитии современного языка.

KIRISH

Ingliz tili gidronimlari tarkibiy jihatdan turli modellar asosida shakllangan bo'lib, ularning kelib chiqishida qadimgi tillarning ta'siri sezilarli darajada kuzatiladi. Ya'ni shuni ta'kidlash joizki, Britaniya orollari xuddi bir "til qozoni" kabi bo'lgan. Bu yerda ming yillar davomida turli xalqlar yashagan va ularning har biri o'z tilida daryo va ko'llarga nom bergan. Masalan, keltlar (dastlabki aholi) daryolarga o'z tillarida "daryo" ma'nosini anglatuvchi "Avon" kabi nomlar berishgan. Ushbu nom bugungi kungacha saqlanib qolib, o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bundan tashqari, Britaniya hududiga keltlardan so'ng kirib kelgan rimliklar, anglo-sakson, viking va norman qabilalarining tili ta'siri ostida ham yangi nomlar paydo bo'lgan deyish mumkin.

Ingliz tili gidronimlarini tuzilishi, kelib chiqishi hamda ma'nosiga ko'ra quyidagi 3 asosiy qismlarga ajratish mumkin:

Morfologik tasnif

Morfologik tahlil o'z ichiga so'zlarning tuzilishi, kelib chiqishi va shakllanishini o'rganishni qamrab olishini hisobga olgan holda ta'kidlash joizki, asosiy morfologik tuzilmalar quyidagilardan iborat:

1. Suffiksial tuzilmalar orqali: ingliz tili gidronimlarining tarkibida uchraydigan so'z oxiriga qo'shiladigan suffikslar ularning ma'nosida muhim rol o'ynaydi va qayerdan kelib chiqqanligini yoki suv havzasining xususiyatlarini aniqlashda yordam beradi. Buni quyidagi misollar orqali ko'rish mumkin:

– bourne (qadimgi inglizcha burna – oqim): Bournemouth, Ashbourne. Ushbu qo'shimcha, asosan, janubiy Angliya hududlarida uchraydi.

– beck (qadimgi skandinavcha “bekkr” – “kichik daryo” yoki “oqim”): Troutbeck, Holbeck. Bu element asosan vikinglar istiqomat qilgan shimoliy hududlarda keng tarqalgan.

– ford (qadimgi inglizcha “ford” – “sayoz joy”): Oxford, Stratford [1]. Ushbu element daryolarni kesib o'tish mumkin bo'lgan sayoz joylarni bildiradi.

2. Prefiksial tuzilmalar orqali: suv havzalari nomi oldidan bosh qo'shimchaning qo'shilishi orqali yasaladi va bu hol ingliz tili gidronimlarida boshqa tuzilmalar (suffiksial va qo'shma) dan farqli o'laroq kamroq uchraydi. Buning sababi tarixiy asoslarga ko'ra, kelt, anglosakson va skandaviya tillarida geografik joy nomlarini shakllantirishda prefikslar muhim rol o'ynamaganligiga borib taqaladi. Misollar:

Black- (qora): Blackwater, Blackburn – suvning loyqalanishi yoki o'rmon oralig'idan oqishini ifodalovchi nomlar.

White- (oq): Whitewater, Whitbeck – suvning tiniqligi yoki tez oqimiga ishora qiladi.

Red- (qizil): Redbrook, Redriver – tuproq tarkibida temir oksidi ko'pligi sababli suv qizg'ish tusga kiradigan hududlarni bildiradi.

Overton Brook (Angliya) – “Yuqori joydagi daryo”, “ton” (qishloq) yuqori hududda joylashganligini bildiradi.

Underwood Lake (AQSh) – “O'rmon ostidagi ko'l” degan ma'noda kelgan [2].

Bedale Beck (Angliya) – “Be-” bu yerda eski inglizcha “**yaqin yoki bog'liq**” ma'nosini anglatishi mumkin, “dale” esa vodiy degani.

3. To'liq qo'shma tuzilmalar orqali: girdonimlarning ikki yoki undan ortiq mustaqil qismlarning birikishi orqali paydo bo'lishi.

River Avon (daryo daryosi – pleonazm/ortiqcha ma'no takrorlanishi). “Avon” so'zi kelt tilidan olingan bo'lib, “daryo” degan ma'noni anglatadi.

Derwentwater (eman daraxti suvi). Ushbu nomning tarkibiy qismlari kelt va anglosakson tillarining aralashmasidan hosil bo'lgan.

Etimologik tasnif. Ingliz gidronimlari tarixan turli davrlarda paydo bo'lgan bo'lib, ularni quyidagi asosiy qatlamlarga ajratish mumkin:

1. Keltcha qatlam (miloddan avvalgi V asrgacha):

Avon (keltcha abona – daryo). Britaniyaning turli hududlarida ushbu nomdagi daryolar uchraydi.

Thames (keltcha Tamesis – qorong'u suv) [3]. Ushbu nom daryoning chuqur va loyqa ekanligini bildiradi.

Derwent (keltcha derva – eman daraxti). Eman daraxtlari bilan o'ralgan suv havzalari shu nom bilan atalgan.

2. Anglo-sakson qatlami (V-XI asrlar):

Exe (qadimgi inglizcha isca – suv). Rimliklar tomonidan qabul qilingan va Angliyaning janubiy hududlarida uchraydi.

Ouse (qadimgi inglizcha usa – oqim). Shimoliy Angliyada keng tarqalgan bu gidronim daryolar va oqimlarga nisbatan ishlatilgan.

3. Skandinav qatlami (VIII-XI asrlar):

-by (qadimgi skandinavcha býr – qishloq): Whitby, Derby. Ushbu element vikinglar istiqomat qilgan joylarda keng tarqalgan.

-thorpe (qadimgi skandinavcha þorp – qishloq): Scunthorpe [4]. Bu suffiks viking koloniyalari bo'lgan hududlarda uchraydi.

Shunday qilib, ingliz gidronimlarining etimologik qatlamlari inson va tabiatning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Ular orqali turli sivilizatsiyalar suv havzalaridan qanday foydalanganini, qanday yashaganini va qanday nomlar qo'yganini bilib olishimiz mumkin.

Semantik tasnif. Ingliz gidronimlari insonlarning tabiatni idrok etish tarzini aks ettirib, **suv havzalarining tabiiy, biologik va geografik xususiyatlariga asoslangan holda shakllangan.**

Ingliz gidronimlari ma'nosi jihatidan quyidagi toifalarga bo'linadi:

1. Tabiiy xususiyatlarga asoslangan nomlar (suvning rangi, oqim tezligi kabi jihatlarni bildiradi):

Blackwater (qora suv) – daryoning botqoqli yoki loyqa suvli joylari uchun ishlatilgan.

Swift River (tez oqar daryo) – kuchli oqimga ega daryolarni ifodalash uchun ishlatilgan.

2. O'simlik va hayvonot dunyosiga oid nomlar:

Otter River (qunduz daryosi) – ushbu nom qunduzlarning yashash joyiga ishora qiladi.

Ashbourne (olxa daraxti oqimi) – daryo bo'yida o'suvchi olxa daraxtlari bilan bog'liq.

3. Geografik xususiyatlarga asoslangan nomlar:

Brackendale (qiyalik vodi) – tog'li yoki qiyalik hududlar bilan bog'liq. Highbrook (baland oqim) – tog' hududlaridan oqib tushuvchi daryolarni ifodalash uchun ishlatilgan.

Bu nomlar suv havzalarining joylashuvi va relyefi bilan bog'liq bo'lib, **tabiat va inson o'rtasidagi tarixiy aloqani ko'rsatib**, geografik yo'l-yo'riq sifatida ham xizmat qilgan.

Gidronimlarning ingliz tilida metaforik va semantik rivojlanishi

Gidronimlarning lingvistik rivojlanishi faqat tarixiy omillar bilan cheklanib qolmay, balki semantik kengayish va metaforik ma'nolar hosil qilish orqali ham davom etmoqda. Ingliz tilida ba'zi gidronimlar ko'chma ma'noda ishlatilishi yoki yangi so'z yasash jarayonida qatnashishi kuzatilmoqda:

1. Gidronimlarning metaforik ma'noda ishlatilishi

Ba'zi daryolar va suv havzalarining nomlari inson faoliyati, jamiyat va madaniyat bilan bog'liq holda metafora va idiomatik birliklar sifatida shakllangan. Masalan:

Mississippi of data – katta hajmdagi ma'lumotlarni tasvirlash uchun ishlatiladi.

Amazon of books – juda katta assortimentga ega bo'lgan kitob do'konlari yoki platformalar haqida aytiladi.

Bu jarayon gidronimlarning semantik jihatdan kengayib, mavjud til birliklariga yangi ma'no qatlami qo'shish qobiliyatini namoyish etadi.

2. Gidronimlardan hosil bo'lgan yangi so'z va atamalar

Ba'zi gidronimlar yangi so'zlar yoki atamalar shakllanishida ishtirok etgan. Masalan:

Thamesian – (Thames daryosidan) Temza atrofidagi madaniyat va yashash tarzi bilan bog'liq tushuncha.

Avonian – (Avon daryosidan) Avon hududi yoki u bilan bog'liq bo'lgan tarixiy-tilshunoslik jihatlarni ifodalovchi so'z.

Ushbu misollar shuni ko'rsatadiki, gidronimlar nafaqat tarixiy nom sifatida, balki zamonaviy tilning rivojlanish jarayonida ham faol ishtirok etmoqda.

Metodika: Ingliz tilidagi gidronimlarning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish

1. Maqsad va vazifalar

Maqsad: Ingliz tilidagi gidronimlarning morfologik, etimologik va semantik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish.

Vazifalar:

Gidronimlarning shakllanishini va rivojlanishini o'rganish.

Ularning tarkibiy tuzilishini aniqlash.

Tarixiy, madaniy va lingvistik omillarni tahlil qilish.

Metaforik ma'nolarni aniqlash va ularning til taraqqiyotidagi rolini o'rganish.

2. Metodologik asoslar

Lingvistik tahlil: Morfologik, etimologik va semantik tahlil usullari.

Tarixiy-lingvistik yondashuv: Gidronimlarning tarixiy rivojlanishini o'rganish.

Madaniy-kontekstual yondashuv: Gidronimlarning madaniy va ijtimoiy kontekstini tahlil qilish.

Metaforik tahlil: Gidronimlarning metaforik ishlatilishini o'rganish.

3. Tahlil qilish bosqichlari

a. Morfologik tahlil

Gidronimlarning tarkibiy qismlarini aniqlash (prefiks, suffiks, qo'shma so'zlar).

Morfologik tuzilishini o'rganish.

b. Etimologik tahlil

Gidronimlarning kelib chiqishini aniqlash.

Tarixiy tillar (kelt, anglo-sakson, rim, skandinav) ta'sirini o'rganish.

c. Semantik tahlil

Gidronimlarning ma'nolarini aniqlash.

Tabiiy, biologik va geografik xususiyatlarga asoslangan nomlarni tahlil qilish.

d. Metaforik tahlil

Gidronimlarning metaforik ishlatilishini o'rganish.

Zamonaviy til taraqqiyotidagi yangi leksik birliklarni aniqlash.

4. Tadqiqot usullari

Korporal tahlil: Gidronimlarning yozma manbalaridagi namunalarini tahlil qilish.

Intervyu va so'rovnomalar: Mahalliy aholi va tilshunoslar bilan suhbatlar o'tkazish.

Tarixiy hujjatlar tahlili: Tarixiy manbalarni o'rganish.

5. Natijalarni taqdim etish

Grafik va diagrammalar: Gidronimlarning tarqalishi va turlari bo'yicha vizual taqdimotlar.

Jadval va sxemalar: Morfologik, etimologik va semantik tasniflarni jadval shaklida taqdim etish.

Ilmiy maqola: Tadqiqot natijalarini ilmiy maqola shaklida yozish.

XULOSA

Ushbu maqolada ingliz tilidagi gidronimlarning lingvistik xususiyatlari har tomonlama tahlil qilinib, ularning morfologik, etimologik va semantik jihatlarini chuqur o'rganildi. Gidronimlar – tabiiy suv havzalariga berilgan nomlar sifatida – til, tarix, geografiya va madaniyatning uzviy bog'liqligi asosida shakllangan bo'lib, ularning rivojlanishida qadimgi kelt, anglo-sakson, rim va skandinav tillarining ta'siri muhim rol o'ynagan.

Morfologik jihatdan gidronimlar uch asosiy model: suffiksalsal, prefiksalsal va qo'shma tuzilmalar orqali shakllangan bo'lib, bu tuzilmalar suv havzasining tabiiy va hududiy xususiyatlarini aks ettiradi. Etimologik tasnif esa gidronimlarni uch tarixiy qatlam – keltcha, anglo-saksoncha va skandinavcha manbalarga ajratish imkonini beradi. Bu qatlamlar orqali suv havzalarining nomlanish tarixiga oid muhim lingvistik va madaniy axborotlar aniqlanadi.

Semantik jihatdan esa ingliz gidronimlari insonning tabiatni idrok etish shaklini, suvning tabiiy xususiyatlari, o'simlik va hayvonot dunyosi bilan bog'liqligini, hamda geografik joylashuvini ifoda etuvchi til birliklari sifatida namoyon bo'ladi. Ular, shuningdek, tarixiy kontekstda joy nomlari sifatida yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, madaniy belgilarni saqlovchi va til taraqqiyotida faol qatnashuvchi vositalardir.

Ahamiyatli jihatlardan biri – gidronimlarning zamonaviy ingliz tilida metaforik va semantik kengayish orqali yangi leksik birliklar shakllanishida ishtirok etishidir. Ayrim gidronimlar ko'chma ma'noga ega bo'lib, madaniy va ijtimoiy kontekstda keng qo'llanmoqda (masalan, *Amazon of books*, *Mississippi of data*), yoki hududiy-madaniy identifikatsiya vositasi sifatida yangi atamalar (masalan, *Thamesian*, *Avonian*) hosil qilmoqda.

Shu bilan birga, gidronimlarning lingvistik tahlili orqali turli tarixiy sivilizatsiyalarning tilga bo'lgan ta'siri, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, hamda til tizimining tarixiy dinamikasi haqida muhim ilmiy xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi. Ingliz gidronimlarini tahlil qilish tilshunoslikda nafaqat onomastika sohasi uchun, balki tarixiy tilshunoslik, sotsiolingvistika va madaniy-geografik tadqiqotlar uchun ham muhim manba sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ekwall, E. (1960). Concise Oxford Dictionary of English Place-Names. Oxford University Press, 50-250.
2. Mills, A.D. (2003). A Dictionary of British Place-Names. Oxford University Press, 420-470
3. Coates, R. (1998). The Place-Names of the River Thames. Journal of Linguistic Geography, 8-12
4. Fellows-Jensen, G. (1985). Scandinavian Settlement Names in the British Isles. Copenhagen: Reitzel, 40-45
5. Ordnance Survey. (2003). UK Hydronyms Database
6. https://www.researchgate.net/publication/230096157_British_and_European_river-names